

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

“Himoyaga ruhsat”
ATT kafedra mudiri

2016y. «____» _____

JAVA DASTURLASH TILI ASOSIDA “SYSTEM TUIT”
PORTALINI ISHLAB CHIQISH

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bitiruvchi	_____	Samadov S.N.
	imzo	
Rahbar	_____	Delov T.E.
	imzo	
Taqrizchi	_____	Raxmonova G.
	imzo	
HFX va E bo‘yicha	_____	Sattorov X.
	imzo	

Toshkent 2016

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

AKT SOHASIDA KASBIY TA'LIM FAKULTETI

“Axborot ta'lim texnologiyalari” kafedrası

5111000 - Kasb ta'lim (informatika va axborot texnologiyalari) yo‘nalishi

Bitiruv malakaviy ishiga

TOPSHIRIQ

Samadov Sardor Norxidir o‘g‘li

Ish mavzusi: Java dasturlash tili asosida “System tuit” portalini ishlab chiqish

2015 yil “15“ dekabrdağı “1324-20”- sonli buyruq bilan tasdiqlangan.

1. Ishni ximoyaga topshirish muddati: 02.06.2016 y
2. Ishga oid dastlabki ma'lumotlar: ma'ruza matn, internet manbalari, dasturiy ta'minot, maxsus adabiyotlar, multimedia vositalari va texnologiyalari_____
3. Hisoblash – tushuntirish yozuvlarining mazmuni (ishlab chiqiladigan masalalar ro‘yxati):
 - Kirish
 - Asosiy qism;
 - HFX qismi;
 - Xulosa, adabiyotlar ro‘yxati, ilova.
4. Grafik materiallar ro‘yxati: taqdimot materiallari, jadvallar

Topshiriq berilgan sana: 22.01.2016y.

Raxbar_____

Topshiriqni oldim_____

5. Ishning ayrim bo‘limlari bo‘yicha maslaxatchilar:

Bo‘lim nomi	Maslaxatchi o‘qituvchining F.I.O.	Imzo, sana	
		Topshiriq berildi	Topshiriq olindi
Asosiy qism	Delov T.E.	20.01.2016 y	20.01.2016 y
Hayot faoliyati xavfsizligi	Sattorov X.	20.03.2016 y	20.03.2016 y

2.Ishni bajarish grafigi

№	Ish qismlarining nomi	Bajarilish muddati	Raxbar belgisi
1	Masalaning qo‘yilishini ishlab chiqish	25.01-10.02	
2	Ishga doir ma'lumotlar bazasini yig‘ish	12.02-28.02	
3	1 bob ustida ishlash. Ta'limni avtomatlashtirishda web dasturiy ta'minotlar tahlili	1.03-22.03	
4	Dastur ta'minotini ishlab chiqish	23.03-10.04	
5	2 bob ustida ishlash. Java dasturlash tili asosida “system tuit” portalini ishlab chiqish	10.04-29.04	
6	HFX bo‘limi ustida ishlash	2.05-15.05	
7	Bitiruv malakaviy ishining dastlabki ximoyasi tayyorgarlik	22.05.2016	
8	Bitiruv malakaviy ishining ximoyasi	02.06.2016	

Bitiruvchi _____ 2016 yil ____

Raxbar _____ 2016 yil ____

MUNDARIJA

Kirish	5
 I BOB. TA'LIMNI AVTOMATLASHTIRISHDA WEB DASTURIY TA'MINOTLAR TAHLILI	
1.1. Web texnologiyalari va ularning hozirgi zamon axborot texnologiyalaridagi o`rni va istiqbollari.....	9
1.2. O`quv qo`llanmani yaratishda Java web dasturlash tilidan foydalanish.....	21
1.3. Java web dasturlash tili, uning ma'lumotlar bazasi va web serverlar bilan bog`liqligi.....	23
1.4. Serverlar haqida tushuncha. Apache server.....	45
 II BOB. JAVA DASTURLASH TILI ASOSIDA “SYSTEM TUIT” PORTALINI ISHLAB CHIQISH	
2.1. “System Tuit” portalini tuzilishi.....	47
2.2. “System Tuit” portalini ma'lumotlar ba`zasi.....	48
2.3. Java dasturlash tili asosida “System tuit” portalini ishlab chiqish texnologiyasi.....	50
2.4. “System tuit” portalidan foydalanish yo`riqnomasi.....	58
 III BOB. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI VA EKALOGIYA	
3.1. Kompyuterlar bilan ishlashda xavfsizlik qoidalari.....	69
3.2. Mikroiklim sharoiti va inson salomatligi.....	75
3.3. Ekologik xavfsizlik.....	78
Xulosa.....	82
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati	84
Ilova.....	

KIRISH

“Biz qisqa vaqt mobaynida nafaqat axborot xizmatlari ko`rsatishning ko`plab turlari bo`yicha mavjud kamchiliklarni bartaraf etishimiz, balki axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish borasida yuksak darajaga erishgan ilg`or mamlakatlar safiga qo`shilishimiz zarur”.

I.A. Karimov.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari jamiyatning barcha jabhalariga shiddat bilan kirib bormoqda. Jumladan, tahlim, fan, texnika, madaniyat, sanhat, tijorat va boshqa sohalarda. Bugungi kunda turli xil toifadagi foydalanuvchilarning elektron resurslardan foydalanish talablari va imkoniyatlari borgan sari ortib bormoqda. Shu bilan birga, veb-saytlarni yaratish, elektron ko`rinishdagi adabiyotlarni yaratish, saqlash, arxivlash, butlash va ulardan foydalanish jarayonlarini ma'lum bir andozalar asosida tashkil etishga katta e`tibor qaratilmoqda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «O`zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida» 2013 yil 27 iyundagi PQ-1989-son qaroriga muvofiq, O`zbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishning ishonchli ko`rsatkichlarini tizimli to`plash va shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek davlat va xo`jalik boshqaruvi organlarida, mahalliy davlat hokimiyati organlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish samaradorligini reytingli baholash tizimini joriy etish vazifalari belgilab ko`rsatilgan. Mazkur qarorda Davlat va xo`jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining rasmiy veb-saytiga qo`yiladigan asosiy talablari ko`rsatilgan bo`lib, jamiyatimizning turli sohalarda foydalaniladigan veb-saytlar qarorda ko`rsatilgan talablar asosida yaratilib, amaliyotga izchil tadbiriq etib kelinmoqda.

Axborot texnologiyalari dunyoda jadallik bilan rivojlanayotgan sohalardan biriga aylanib bormoqda. Kompyuterlar asta-sekin insonlar hayotiga kirib

bormoqda. Ya'ni, faol ish yurituvchini internet global tarmog'isiz, intellektual ishchini esa ish joyida kompyutersiz tasavvur qilish qiyin. Kompyuter texnologiyalari inson hayot tarzida, kichik va katta korxonalarda, kompaniyalarda, o'quv dargohlarida, davlat muassasalarida behad ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi vaqtda har bir tashkilot qaysi soxada ish olib bormasin, dunyo bozoriga chiqish uchun o'z faoliyatida internetdan foydalanish zarurligiga katta e'g'tibor qaratmoqda. Internetda axborotni joylashtirish uchun uning ekrandagi ko'rinishi qulay bo'lishiga, ya'ni Web-sahifasiga e'tibor berish zarur, chunki saxifadagi foydalanuvchi axborot har tomonlama bo'lishi mumkin va u Web-saytga joylashtiriladi. Aql bilan yaratilgan sayt, qoida bo'yicha, informatsion yagona bus-butun bo'lishi va joylashtirilgan axborotning ahamiyatiga qarab, ma'lum standartga ega bo'lishi kerak. Yuqorida keltirilganlardan Web-saytni yaratish va uni loyihalash jarayonlarini o'rganib chiqish muammolarining kundalik zarurligi va dolzarbliligi kelib chiqmoqda. Bu o'quv qo'llanma internetda ishlash bo'yicha ma'lum bilim va tajribaga ega bo'lgan talabalar uchun mo'ljallangan.

Sivilizatsiya natijasida insonlar o'zlarini axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida turli xil texnologiyalarni amalga oshiradilar. Hozirgi vaqtda butun dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) jadallik bilan rivojlanib bormoqda. AKT deyarli xalq xo'jaligining barcha sohalarida kirib bormoqda. Bu albatta rivojlanishning bir bosqichi bo'lib zamon talabidan biridir. AKT ni ishlab chiqarishda qo'llanishi istehmolchilar bilan aloqani o'rnatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Albatta respublikamizda AKT ni barcha sohaga tadbiq etish borasida bir necha qonunlar, farmonlar va qarorlar qabul qilingan.

Jumladan, 2012 yil 19-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 356-son qarori bilan Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasi to'g'risidagi Nizomi tasdiklandi, aloqa va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish sohasida ustuvor va ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan loyixalar, ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtirishda uning vazifalari kengaytirildi.

Hozirgi AKT rivojlanib borayotgan vaqtda kompyuterdan foydalanuvchilar soni keskin ravishda oshib bormoqda. Hozirgi vaqtda milliy domendagi saytlar soni 14000 dan oshib ketgan.

Foydalanuvchilarga qulaylik yaratish va ularni ishini osonlashtirish maqsadida ko'pgina jarayonlar avtomatlashtirilmoqda.

Bugungi kunda yuksak intellektual salohiyat egasi bo'lgan, yuksak texnologiyalar sir asrorini chuqur egallagan va uning yutuqlarini sohalar rivojiga yo'naltirishga, farovon kelajakni barpo etishda o'zining munosib ulushini qo'shishga qodir malakali mutaxassislar jamiyatning muhim tayanchi hisoblanadi. Jumladan, IT olami biror bir tashkilot yoki korxona faoliyatini avtomatlashtirish hozirga vaqtda zamon talablaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu albatta korxona faoliyatini boshqaruv jarayonini sezilarli darajada oshiradi. Bozor iqtisodiyoti talablaridan biri bo'lgan ishlab chiqarish korxonalarini saytini yaratish va sayt orqali o'z mahsulotlarini sotish orqali bozorda o'z o'rnini egallash dolzarb muammolardan biridir.

IT olami yangiliklari veb sahifasini ishlab chikishga bag'ishlangan.

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi davrda jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan jamiyat uchun ta'lim – eng muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Xalqning farovon turmush tarzi ta'limning nechog'li sifatli va samaradorligiga bog'liq. Hozirgi murakkab iqtisodiy vaziyatda xalq xo'jaligining barcha sohalarida yuqori malakali kadrlarni ko'paytirish juda muhim hisoblanadi.

Ta'lim jarayonini takomillashtirish jarayonlari amalga oshirilayotgan bir vaqtda masofaviy o'qitish jarayoniga ham juda katta e'tobor berilmoqda, jumladan hozir masofaviy ta'lim tizimlari asosida ta'lim vazirliklari, oliy o'quv yurtlari o'zlarining virtual ta'lim tizimlarini yaratib, shu asosda ta'lim jarayonini tashkillashtirmoqda.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida Java dasturlash tili asosida "System tuit" portalini ishlab chiqish to'liq yoritib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: Java dasturlash tili asosida "System tuit" portalini ishlab chiqishni o'rganish.

Bitiruv malakaviy ishi vazifalari:

1. Talimni avtomatlashtirishda Web tasturlash tillaridan foydalanishning nazariy asoslarini o'rganish;
2. Java dasturlash tili asosida "System tuit" portalini ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga tadbiq etish;

Bitiruv malakaviy ishi ob'ekti: Java dasturlash tili asosida "System tuit" portalini ishlab chiqishni o'rganish jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishi predmeti: Java dasturlash tili asosida "System tuit" portalini ishlab chiqish tizimi.

Bitiruv malakaviy ishi metodlari: pedagogik, psixologik, texnik adabiyotlarning nazariy tahlili; pedagogik tajribani o'rganish va umumlashtirish, hujjatlarni o'rganish, ko'zatuvi, suhbat, o'z-o'zini tahlil qilish va o'z-o'zini baholash, mustaqil xarakteristikalarini umumlashtirish, tajriba-sinov ishlari.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati: Barcha oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini avtomatlashtirilgan xolda boshqarishda foydalanish mumkin.

BMI tuzilishi va hajmi: Kirish, uchta bob, xulosa, 26 ta adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Ish 85 bet mashina yozuvli matn, 28 ta rasm va 2 ta jadvaldan tarkib topgan.

I BOB. TA'LIMNI AVTOMATLASHTIRISHDA WEB DASTURIY TA'MINOTLAR TAHLILI

1.1. Web texnologiyalari va ularning hozirgi zamon axborot texnologiyalaridagi o`rni va istiqbollari

Hozirgi vaqtda zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalarini iqtisodiyot, fan va tag'limning barcha sohalariga keng joriy etish, xalqaro axborot tizimlariga, shu jumladan, Internetga kirib borishini kengaytirish, yuqori malakali dasturlovchi mutaxassislar tayyorlash darajasini oshirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Internet - bu internet texnologiyasi, dasturiy tag'minoti va protokollari asosida tashkil etilgan, hamda mag'lumotlar bazasi va elektron xujjatlar bilan kollektiv ravishda ishlash imkonini beruvchi korxona yoki kontsern miqyosidagi yagona axborot muhitni tashkil etuvchi kompyuter tarmog'idir.

Foydalanuvchi nuqtai nazaridan tahlil qiladigan bo'lsak, internet birinchi navbatda tarmoq mijozlariga o'zaro ma'lumotlar almashish, virtual muloqot qilish imkonini yaratib beruvchi "axborot magistralla'i" vazifasini o'taydi, ikkinchidan esa unda mavjud bo'lgan ma'lumotlar bazasi majmuasi dunyo bilimlar omborini tashkil etadi. Bundan tashqari internet bugungi kunda dunyo bozorini o'rganishda, marketing ishlarini tashkil etishda zamonaviy biznesning eng muhim vositalaridan biriga aylanib bormoqda.

Internetning ikkita asosiy funktsiyasi bor. Birinchisi axborot funktsiyasi bo'lsa, ikkinchisi esa kommunikatsion funktsiyasidir. Internetning axborot funktsiyasi birinchi navbatda tarmoq foydalanuvchilariga talab etilayotgan axborotlarni tezkorlik bilan yetkazib berish bo'lsa, ikkinchidan u axborotlarni keng ommaga, jahon miqyosida nihoyatda tez surhatda ehlon qilish imkoniyati mavjudligi bilan ifodalanadi. Internetning yuqori surhatlar bilan rivojlanishi ommaviy axborot faoliyatida va nashrchilikda keng imkoniyatlar ochib berdi. Masalan, internet yordamida butun dunyodagi eng so'nggi xabarlarni Toshkentga yetkazib berish, gazeta va o'kuv darsliklarni tayyorlash, nashr qilish, hamda

ularni keng o'quvchilar ommasiga tarqatish, hozirgi mavjud usullardan bir necha o'n barobar arzon, tez va samaraliroq bo'ladi.

1997 yildan boshlab O'zbekistonda Internet Provayderlar xizmat ko'rsata boshladi. Hozirgi kunda O'zbekistonda 60 dan ziyod Internet provayderlar ishlamoqda.

O'z navbatida undan foydalanuvchilar soni ham yildan yilga oshib bormoqda. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda Internetdan foydalanuvchilar soni 10 milliondan oshib ketgan.

Hozirgi kunda deyarli barchaning uyida o'z shaxsiy kompyuteri va internet mavjud. Hech bo'lmaganda odamlar o'z aloqa telefonlari orqali Internetga bimalol kirishlari mumkin.

Yurtimizda Internetga ulanish juda ham osonlashib bormoqda. Internetga respublikaning ixtiyoriy nuqtasidan turib quyidagi ko'rinishda ulash mumkin:

- telefon tarmog'i orqali;
- uyali aloqa telefonlari (Uzmobile, Bilayn, Ucell, 'erfectium va UzOnline) orqali;;
- aloqa kompaniyalari tomonidan tavsiya qilinayotgan fleshkalar va boshqa xizmatlar orqali;
- EVO koreya qo'shma korxonasi uskunalari
- Wi-Fi va boshqalar orqali.

Bu esa ishalb chiqaruvchi kompaniyalarga istehmolchilar bilan aloqani o'rnatish uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda albatta ular tomonidan yaratilgan saytlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Faoliyat ko'rsatish samaradorligi biznes uchun o'ta muhim omil hisoblanadi. Qattiq raqobat muhiti mavjud bo'lgan bir sharoitda eng samarali kompaniyalar yashab qolishi va foyda keltirishi mumkin.

Boshqalar singari natijalarga erisha olmaydiganlari bankrot bo'lishga mahkum etilgandir.

SHu sababli hamma davrlarda biznes samarali bo'lishi, foyda keltirishi hamda mijozlar va mahsulot yetkazib beruvchilar bilan aloqani tahminlashi

kerak. Barcha davrlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritgan korporatsiyalar kommunikatsiya va boshqaruvning har xil texnologiyalarini rivojlantirishga faqat o'z biznesini yanada samaraliroq qilish uchun ancha salmoqli investitsiyalar qo'yib kelishgan.

Masalan, o'z vaqtida telegrafning kashf etilishi ham biznes, ham hukumat uchun ko'plab vazifalarni bajarish samaradorligini tubdan oshirdi. Pul jo'natmalari, masofadan turib bitishuvlar tuzish, axborot olish va tarqatish kabi jarayonlar jiddiy ravishda soddalashdi va tezlashdi .

Internet orqali to'lash – korporatsiyalarga menejmentning printsiplari jihatdan yangi sifatini tahminlagan texnologik yechimlardan biridir. Uning yordamida yetkazib berishlar halqasi va mijozlar bilan muomala halqasi jiddiy ravishda yaxshilanadi. To'lovlarning elektron tizimiga o'tish bank chiqimlarini kamaytiradi. SHu sababli biznesni yuritishning elektron shakllari juda samarali texnologik ishlanmalar hisoblanadi. Ushbu sohaga bugungi kunda ancha salmoqli investitsiyalar yo'naltirilmoqda. Bu mablag'lar «yangi rasm bo'lgan» abstrakt-nazariy izlanishlarni qo'llab-quvvatlaydigan «metsenatlik» dan kelib chiqib emas, balki korporatsiyalarning foydasini oshirishdek sof pragmatik mulohazalardan kelib chiqib yo'naltirilmoqda.


Bugungi kunda axborot texnologiyalari rivojlanishini web texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Web texnologiyalari deganda - web ilovalar hosil qilish, web saytlar tashkil qilish, tarmoq va texnologiyalar jamlanmasi tushuniladi. Web texnologiyalarida quyidagi 3 ta asosiy tushuncha mavjud:

- Web sahifa
- Web sayt
- Web server

Web sahifa o'zining unikal adresiga ega bo'lgan va maxsus brauzer dasturlar orqali ochiladigan va ko'riladigan elektron hujjatdir.

Web sayt bir nechta web sahifalarning mantiqiy va funksional jihatdan birlashtirilgan sahifalar to'plami.

Web server tarmoqqa ulangan kompyuter hisoblanib umumiy resurs va dasturlarni boshqaradi. Web sahifa va web saytlar bilan ishlash uchun eng keng tarqalgan texnologiya WWW texnologiyasidir. Umumiy holda web texnologiyalarni quyidagi sxema ko'rinishida tasvirlash mumkin.



1 – rasm. Web texnologiyalar klassifikatsiyasi.

Web-saytlar turlari va tarkibi

Albatta biror bir korxona va tashkilotning jahon bozoriga yahni Internet tarmog'iga chiqishida uning asosiy “yuzi” bo'lib uning Web-sayti xizmat qiladi. Veb sayt korxona va tashkilotning olib boradigan faoliyati haqidagi kerakli barcha ma'lumotlarni o'z ichiga olishi lozim. Web-saytlar o'z navbatida har hil turlarga bo'linadi.

Tarmoqda ishlovchi Web-saytlar asosan quyidagi turlarga bo'linadi:


1.Uy Web-saytlari - Web-tarmoqning uy sahifasi tarmoqqa kiruvchi eshik hisoblanadi. Bu sahifa yaratilgan tarmoqdagi eng asosiysidir, chunki tarmoqqa kiruvchi aynan siz haqingizda, sizning kompaniya yoki tashkilotingiz haqida eng

birinchi taassurotlarini aynan shu sahifadan oladi. O'z navbatida u ikki qismga bo'linadi:

- axborot sahifasi;
- qo'shimcha sahifa.

2.*Maxsus Web-saytlar*-Bu sahifada kompaniya va tashkilotlarga tegishli qo'shimcha axborotlar, masalan, telefon, adres, elektron pochta va boshqa ma'lumotlar. Bu sahifa asosiy sahifaga ulab qo'yilgan bo'ladi.

3.*Avtomatlashtirilgan qidiruv sahifalari* - Bunda mijoz yoki foydalanuvchi uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirishni amalga oshirishni tahminlaydi.



2 –rasm Avtomatlashtirilgan qidiruv sahifalari

Ma'lumotli sahifalar bu ko'rsatkichlari uy sahifasida joylashgan Web-tarmokdir.

4.*Interaktiv serverli sahifalar*- Bu Web-saytlarga korxonalar yoki jismoniy-yuridik shaxslar o'rtasida to'lovlarni amalga oshirish va elekton tijorat doirasida turli xil hisob-kitoblarni amalga oshirishni tahminlovchi, chat xizmatlari va uzoq masofaviy o'qitish tizimlaridan foydalanish amalga oshiruvchi va o'z ma'lumotlar bazasiga ega bo'lgan web sahifalar kiradi.

Web-saytlar tarkibi.

Web-saytni to'ldirishda doimo ikki tamoyilni yodda tutish kerak: o'ziga xoslik va e'lon qilinayotgan materiallarning ishonchliligi.

O'ziga xoslik mazmunga qo'yiladigan eng birinchi talabdir. WWW da shunga o'xshash ko'plab sahifalar bo'lishi mumkin. Sizning Web-saytingiz shunga o'xshash tematikadagi serverlardan farq qilishi kerak, hech bo'lmaganda diqqatni o'ziga jalb qilish uchun. O'ziga xos materiallarni joylashtirilishi sahifangizga kiruvchilar sonini orttiradi. O'ziga xos ma'lumotlar resursi yaratish uchun 'rints'ial jihatdan yangi narsani yaratish shart emas, mavjud resurslarni boshqacha tartibda joylashtirish mumkin, lekin bunda xaridorga kerakli material qidirishda ko'p vaqt sarflashga majbur qilmaslik kerak. Resurslarning o'ziga xosligini zamonaviy qidiruv sistemalari yordamida tekshirib ko'rish mumkin. Obro' jihatdan kelsak, u siz ma'lumotlarni qanchalik sinchiklab tanlashingiz, tekshiringiz va o'z vaqtida yangilab turishingizga bog'liq bo'ladi.

Web-saytni yaratishda shu narsani esda tutish kerakki, uni tashkil qiluvchi alohida sahifalar bir xil bezash usuli va navigatsion vositalar bilan birlashtirilishi kerak. Bir xil ko'rinishda qilingan sahifalar tufayli foydalanuvchilar sizning Web-saytingizni boshqalardan ajrata olishadi va eslab qolishadi. Bu sahifalar xuddi ikki tomchi suvdek bir-biriga o'xshashi kerakligini bildirmaydi, lekin umumiy g'oya, yagona usul doimo bo'lishi kerak.

Shu narsa sahifalar bo'ylab navigatsion vositalarga ham tegishli. Web-saytga kiruvchi uni xuddi siz kabi yaxshi biladi deb o'ylamaslik kerak. U hozir o'zining qaerda turganligini va boshqa hohlagan joyga qanday o'tishi mumkinligini qiyinchiliksiz bila olishi kerak. Birinchi sahifaga, qidiruv dasturiga yoki Web-sayt sxemasiga o'ta olish imkoniyati ko'rib qo'yilishi kerak.

Bundan tashqari, usulning bir xilligi bezash va navigatsiyaning faqatgina oddiy elementlariga ega shablon-sahifalardan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Ularning yordamida yangi sahifalarni tez va unumli tarzda yaratish va uni yaratishda ishni bir necha kishiga taqsimlash mumkin. Tayyor sahifani olishda shablondan foydalanishda unga faqatgina kerakli ma'lumotlar kiritiladi. Ketma-ketlilik, mantiqiylik, doimiylik – yaxshi Web-sayt uchun kerak bo'ladigan

xususiyatlar. HTML 4.0 da paydo bo'lgan usullarning kaskadli jadvallari sizning Web-saytingiz stilini hosil qilish va o'zgartirish bo'yicha qilinadigan ishlarni anchagina soddalashtiradi.

Struktura. Bugungi kunda sahifa strukturasi to'g'risidagi qarashlar qat'iylashdi. Web-sayt o'zida quyidagi bo'limlarga ega bo'lishi kerak: sarlavha, kom'aniya nomi, navigatsion panel, hususiy mazmun, kontakt ma'lumotlari, yangilanish sanasi va vaqti, mualliflik xuquqi va sahifa statusi.

Logotip. Web-saytni yaratishda firmaning nomi doimo ekranda bo'lishi to'g'risida qayg'urish kerak. Buning uchun har bir Web-saytning boshida odatda chiroyli qilib bezatilgan firma logoti'i joylashtiriladi. Bundan tashqari kom'aniya nomi barcha sahifalarga kiruvchi ma'lumotlarda ham bo'lishi kerak.

Navigatsion panel. Web-saytdagi eng muhim bo'limlardan biri bu navigatsion panel yoki boshqaruv panelidir. WWW undagi gi'ermatnli o'tishlar e'lon qilinayotgan metrialalar orasida bog'lanishlarni yuzaga keltirganligi hisobiga butun dunyoni egalladi. Lekin xuddi shu o'tishlar to'la xaos xavfini ham yuzaga keltiradi, zanjir bo'ylab uch-to'rtta sahifani o'tgandan keyin, orqaga qaytolmay qolasiz. Sizning Web-saytingiz aniq va intuitiv tushunarli navigatsion yo'nalishlar bilan ta'minlashi kerak.

Ko'plab o'tkazilgan izlanishlar ko'rsatadiki, Web-serverlarga kiruvchilar juda sabrsizdir va serverdagi ma'lumotlar bo'yicha ikki darajadadan ortiq ichkari kirishni istashmaydi. SHuning uchun katta hajmdagi Web-saytlarini yaratayotganda har qanday ma'lumot bir-ikki o'tishlardan uzoqlashmagan oraliq, odatda birinchi-ikkinchi darajada joylashuvchi sahifalarni ko'rib chiqish kerak.

Sizning Web-saytingizning navigatsion paneli har bir sahifada bo'lishi kerak. Eng avval unda Web-sayt strukturasi qo'shni sahifalarni ko'rsatuvchi "Oldinga"- "Orqaga" ("Navbatdagi"- "Oldingi") ti'idagi yo'naltiruvchi o'tishlar bo'lishi kerak. Yana boshqaruv panelidan Web-saytning barcha yirik bo'limlaridan birinchi darajali bo'limlariga o'tish imkoniyati bo'lishi kerak. Va nihoyat foydalanuvchi doimo Web-saytning asosiy sahifasiga qaytish imkoniyatiga ega

bo'lishi kerak. O'tishlardan tashqari mahalliy qidiruv sistemasiga va indeksga bo'lgan yo'lni ko'rsatish kerak

Mazmun. Eng oldin shuni ta'kidlash kerakki, Web-saytlar oddiy gazeta yoki jurnallarga qo'yiladigan talablarga to'la javob berishlari kerak: Grammatik va orfografik xatolardan holi bo'lish, berilayotgan materiallarning aniqligi va ishonchliligi va boshqalar. Bundan tashqari Web-sayt qanoatlantirishi kerak bo'lgan ko'plab maxsus talablar paydo bo'ladi.

Ko'pincha sahifaning o'lchamlari to'g'risida savol tug'iladi: qanday sondagi sahifalar yetarli bo'ladi? Javob birinchi qaraganda g'alati tuyulishi mumkin: bitta ekranli oyna yoki hech qanday chegara qo'yilmaydi. Ko'plab izlanishlar shuni ko'rsatadiki, foydalanuvchilar brauzerning yugurdakli 'olosasi bilan ishlashni yoqtirishmaydi. Ularga hammasidan ko'proq bitta ekranga sig'adigan sahifa yoqadi. Haqiqatdan ham siz hech qachon foydalanuvchiga bitta sahifaga joylashtirib yozilgandan ko'proq ma'lumot bera olmaysiz. Agar bitta sahifaga sig'dira olmasangiz, u holda yana bitta hujjat yarating.

Bir ekranli sahifa ma'lumotlarni tasvirlash uchun mos o'lchov bo'lib chiqdi. Agar hujjatning o'lchami bitta sahifadan o'tib ketsa, ko'pchilik hollarda u har biri bitta sahifadan ortiq joy egallamaydigan bir nechta mantiqiy bo'laklarga bo'linishi mumkin. Agar ma'lumotni mantiqiy qismlarga bo'lishning iloji bo'lmasa, bayon qilish usulini, ba'zan esa materialni o'zini ham qayta ko'rib chiqish kerak bo'ladi. Hozirgi vaqtda Web-serverni bir ekranli sahifalar asosida qurish kerak degan umumiy fikr hosil bo'lgan. Bu qoidadan ikki holdagina chekiniladi. U WWW da e'lon qilinayotgan maqolalarga qo'llanilmaydi va ikkinchi hol- bo'lishi mumkin bo'lmagan anketa formalari.

Grafika. Web-saytni ishlab chiqishda grafik va matnli materiallarning o'timal nisbatini diqqat bilan tanlash kerak. Bitta yaxshi rasm ming qator matnning o'rnini olishi mumkin, lekin u tarmoqda ming marta uzoqroq yuklanadi ham. SHuning uchun grafikadan extiyot bo'lib foydalanish kerak. SHu narsadan kelib chiqish mumkinki, sahifadagi grafika Web-ustasi hohlagandan ko'ra ozroq bo'lishi kerak. Foydalanuvchilarda sabr yetishmasligi mumkin va ular sahifani to'la ochilmasidan

turi boq yo'ib yuborishadi. Sistema javobining kechikishi foydalanuvchining g'ashini keltiradi. Hozir Internetning kanallar infrastrukturasini ishlash qanchalik og'irligini hamma yaxshi tushunadi. SHuning uchun kechikish vaqti sutka vaqtiga qarab 15-60 sekundgacha o'zgarib turadi. Endi tasavvur qiling, klientda faqat 19200 bit/s uchun modem bo'lsin. Bundan oshishiga Rossiya telefon liniyalarida erishish qiyin. U holda bir minut ichida, yag'ni klientning sabri tugaguncha, faqatgina 170 Kbayt ma'lumot uzatish mumkin. SHundan kelib chiqib sahifa o'lchami bundan katta bo'lmasligi lozim.

Shuni ta'kidlash kerakki, boshqaruv paneli, firma nomi va logotipi odatda grafik yelementlar shaklida bajariladi. Maketini yasagandan keyin *HTML* va *WWW* ning zamonaviy texnologiyalari tomonidan tavsiya qilinadigan boshqa vositalar yordamida amalga oshirishni boshlash mumkin.

Web-saytni dasturiy vositasi. Dinamik Web-saytlarning xar bir saxifasi shablonlar asosida bo'lib, ular doimo axborotlar bazasidagi axborotlar bilan yangilanib boriladi. Foydalanuvchi o'ziga kerakli web-saxifani chakirganda bu ma'lumotlar bazadan olinadi, shablonga qo'yilib yangi Web-saxifa xosil qilinadi, kerakli ko'rinishda bo'lishi uchun bu saxifa foydalanuvchi brauzeriga Web-server orqali yuboriladi. Dinamik Web-saytlarda faqat ma'lumotlarni yangilash bilan cheklanmay yangi elementlar qo'shish xam mumkin. Dinamik Web-sayt tuzilib ishga tushirilganidan so'ng uning yutuqlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Dinamik Web-saytni yaratish uchun birinchi bo'lib bizga Web-server kerak, masalan A'ache. Web-server ko'p soxalarda ishlatilishi mumkin, masalan elektron magazinga, axborot serveriga, kidiruv sistemasiga, masofadan o'qitish tizimiga xizmat ko'rsatishi mumkin. Serverni tanlash internetda nima bilan shug'ullanmokchi ekanligimizdan kelib chiqadi. Ushbu saytni yaratishda PHPalgoritmik tildan foydalanilgan. PHPdasturlash tili tanlanganligiga sabab, bu dasturlash tili dasturlovchi uchun juda qulay xamda bu til aynan Internet uchun yaratilgan. PHPning asosiy raqiblari – Perl , ASP , ColdFusion va Java. RNR va 'erl. perltili dasturchi Larri Uoll (Larry Wall) tomonidan tuzilgan va 'ractical Extraction and Re'ort Language ning qisqartmasidir. —Amaliy ma'lumotlarni

chiqarish va xisobotlar tayyorlash tili deb tarjima qilish mumkin. Perl izoxlovchi til va vebga nisbatan bir qancha eskirgan. Internet tili perlchiqqach dinamik veb saytlar yaratish uchun bir qancha qulay instrumentlar yaratildi. Ommalashgan perltili barcha web serverlarda ishlaydi. UNIX da boshqariladigan tizimlarda xam ishlay oladi.

Perl tili sintaktik tomondan sodda va ancha kam, RNR esa funktsional tomondan yuqori, shuning uchun RNR undan ustun taradi. perltili xar xil turdagi ilovalarni yaratish uchun tashkil etilgan sintaksisi xaqida ga'irib bo'lmaydi RNR sintaksisi unga nisbatan ancha soddaroq shuning uchun ko'proq RNR o'rganiladi. PHP va Java. Umuman aytganda, Java va Java texnologiyasi bir biridan fark kiladi. Java tili S tilining to'liqroq shakli, qaysi —kengaytirilgan S++ kabi ishlangan. Java texnologiyasi o'ziga klient va server qismlarini biriktiradi, va yana ma'lumotlar bazasi bilan bog'lanish imkonini beradi, shuning uchun Java texnologiyasini Apache/PHP/MySQL bog'lanmasiga tenglashtiriladi. Java texnologiyasi platformalararo texnologiya ko'rinishida ishlab chiqilgan, foydalanuvchilar kor'orativ masshtabdagi Web saytlarni yaratishi mumkin. Bu texnologiyaning asosiy ustunligi 'latformalararo ko'chishi va ob'ektga mo'ljallangan dasturlash tili, qaysiki qiyin va katta ilovalarni yaratish uchun. Kamchiliklari sekin bajarilishi va xotirani katta talab qilishi va Web ilovalarni ishlab chiqarish qiyinchiligi PHPga tenglashtiriladi. PHPmoslashuvchanlik va masshtablanish bo'yicha deyarli Java dan qolishmaydi. Bir qancha oddiy ilovalarda o'zini yetarli oqlagan lekin jiddiy ilovalarda chetlab o'tadi.

Apache Server Java moduli bilan yoki IIS PHPmoduli bilan birga bo'lishi kerak. A'ache Linux yoki Unix da eng yaxshi va tez ishlaydi, lekin Windows XP yoki NT ishlatmoqchi bo'lsangiz, ularga xam qo'yib tekshirishingiz mumkin. A'ache serverni siz <http://www.apache.org> saxifasidan olishingiz mumkin. PHPtexnologiyasidan foydalanganligim sababi PHPda havsizligi yuqori va dastur tuzish birmuncha yengil. PHPni serverga o'rnatish qulay chunki PHPkod mashina kodiga yaqin .

Web - saytning dasturiy vositasi qismida saytning o'ratsion va server qismlarining o'zaro aloqalari va aloqalari masalasi ko'riladi. Yag'ni o'ratsion qismida internet do'koni yaratish texnologiyalari dasturlash tili va MB masalalari hal qimlinadi. Bu mavzuda bobning keyingi bo'limida to'liqroq to'xtalamiz. Server qismida esa internet do'koni yaratish texnologiyasini qo'llab-quvvatlaydigan 'rovayder orqali internetda joylashtirish masalasi xal qilinadi. Administrator bo'limida internet do'kon elementlarini boshqarish masalasi elektron web sahifa umumiy sozlash ishlari amalga oshiriladi. Administrator bo'limiga bevosita tarmoqdan turib, login va parol bilan murojat qilish mumkin. Bu saxifada quydagicha imkoniyatlar amalga oshirilishi mumkin:

- kataloglarga va qism kataloglariga o'zgartirish kiritish;
- maxsulot xaqidagi mag'lumotlarni o'zgartirish, o'chirish, yangilik kiritish;
- administrator logik yoki parolini o'zgartirish;
- sayt yangiliklarini o'zgartirish;
- buyurtma mablumotlarini olish;
- foydalanuvchilar qoldirgan fikr-muloxazalar bilan tanishish.

Ushbu bo'limlarda o'zgartirish bajarilganda MBdagi mos jadvallar mag'lumotlariga o'zgartirish kiritiladi. Saytning mijoz qismi maksimal qulaylikka ega bo'lishi va 'otentsial mijozlar bilan individual ishlashni tashkil etishi lozim. Saxifalar tushunarli muloqotli oynalardan, qulay to'lov usuli va maxsulotni yetkazib berish imkoniyati bilan tag'minlanishi kerak. Tashrif buyuruvchilarning fikrini yoki ularda paydo bo'lgan savollarga javob berish uchun teskari aloqa o'rnatish xam muhim faktorlardan biri xisoblanadi.

Internetda mavjud elektron web sayt ishlashini taxlil qilib, uyali aloqa vositalari loyixalashtirishda, albatta, quyidagilarni bilishi nazarda tutiladi:

1. Web-vitrina. elektron web sayt maxsulotlari rastasi desa xam bo'ladi. Maxsulotlar kataloglarga joylashtirilishi kerak, foydalanuvchi tez izlab to'ishi uchun.

2. har bir maxsulotning qisqacha va to'liq tavsifi keltirilishi kerak.

3. ko'rimli bilish uchun marketing tadqiqotlariga asosan guruxlarga ajratilgan va tovarlardan tashkil to'gan maxsus bo'limlarni qo'yish zarur. Masalan —yangi maxsulotlar (savdoga yaqinda chiqarilgan maxsulotlar)

4. elektron web sayt axborot bo'limlarining bo'lishi:

- elektron web sayt xaqida (uning faoliyat doirasi, adresi, kontakt telefoni va x.k)

- mol narxlari xaqida mag'lumotlar

- chegirmalar xaqida mag'lumotlar

- web sayt yangiliklari

- boshqa foydali mag'lumotlar

5. elektron web sayt xaridorga ko'rinmaydigan bek-ofis qismi, yag'ni boshqaruv qismi. Bu qismga administrator o'z login va paroli bilan murojaat qilib, elektron web sayt tarkibini boshqarishi, o'zgartirishi mumkin.

Sayt uchun joy tanlash xar doim uta masuliyatli ishdir. CHunki saytni kay tarzda va qaerda joylashtirilganligiga ko`p narsa bog`liq. Masalan mijozlarning kirishi, ularda qiziqishning tug`ilishi va nixoyat foyda. Be`ul xosting xizmatlarida kafolatlarga xech qanday ortikcha ga` bo`lishi mumkin emas. SHuning uchun xam bu xosting xizmatlari be`ul. Masalan uzok vakt davomida saytga kira olmaslik yeki sayt yegasiga xech kanday alokasi bo`lmagan reklamalarning joylashtirilishi. Be`ul xosting serverlari doimiy xizmat ko`rsatish kafolatini bermaydi. Buni shartnoma o`zgarishida ko`rishimiz mumkin. Misol uchun mijoz saytida majburiy reklamalarni joylashtirish yoki keyinchalik tijorat asosidagi puli xizmatlarga o`tish . Bundan tashkari ko`pchilik be`ul xosting serverlar juda chegaralangan servislarni taqdim etadi. Ularda Internet dasturlarning funktsionalligi uchun kerak bo`lgan skri`tlarni va malumotlar bazasini ishlatib bulmaydi. Bunday imkoniyatlar asosan pulli xosting Provayderlarda yaratib beriladi. Katta mijozlar uchun takdim etilaetgan xizmatlarning narxi va ular o`z ichiga olgan servislarning ko`pligidan tashqari serverning ishlashi benuqson bo`lishi va xavfsizlikning yuqori darajada qo`yilganligi katta axamiyatga ega. Ko`pchilik foydalanuvchilar uchun xizmatlar

narxi birinchi o'rinda turadi. Xosting kom'aniyalarning asosiy mijozlarini be'ul xosting serverlarida o'z saytlariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar tashkil etadi .

Ikkinchi mijozlarni qiziqtiradigan masala bu server tomonidan ajratiladigan xotira xajmidir. Tekshiruvlar natijasida malum bo'ladiki, saytning o'ziga kamida yigirma, o'ttiz Mega bayt va 'ochta xizmati uchun yana un Mega bayt kerak bo'ladi. Lekin katta Web – saytli dasturlar uchun yuz va undan ortik Mega bayt kerak bo'lishi mumkin. SHuning uchun asosiy mijozlarning talablarini kondiruvchi xotira xajmi o'ttiz – ellik Mega baytdan boshlanadi. Xizmatlar narxi va xizmat ko'rsataetgan serverning xotira imkoniyatlaridan so'ng mijozlarni ko'shimcha servislar qiziqtiradi Masalan elektron 'ochta manzili, malumotlar bazasi va skri'tlar bilan ishlash imkoniyatlari. Xamma 'rovayderlarda elektron 'ochta manzilidan foydalanish imkoniyatlari bo'lganligi sababli, mijoz uchun bu katta ahamiyatga ega emas. Boshqa ga' malumotlar bazasi va skri'tlar. Yukorida aytib o'tilgan muloxazalardan kelib chikib, xosting xizmatlarni ko'rsataetgan kom'aniyalarni tanlashda uchta asosiy ko'rsatkichlariga ahamiyat berishimiz kerak. Bular narxi, xotira xajmi va skri'tlar bilan ishlash imkoniyatlaridir. Web – saytning administrator (boshqaruvchi) qismini yaratish . Web – saytning administrator qismi Web – sayt saxifalarini boshkarishni, yangi saxifalar ko'shishni va maxsus sozlashlarni o'z ichiga oladi. Web – saytda mijozlar bilan ishlash tartibini ko'rib chiqamiz. Web – sayt arxetekturasi mijozlar uchun juda kulay va malumotlar almashuvining tezkorligini taminlash uchun sodda tuzilgan.

1.2. O'quv qo'llanmani yaratishda Java web dasturlash tilidan foydalanish

1994 yili java tilining yaratuvchisi Rasmus Lerdorf o'zinig saytiga mehmonlar kirishini hisoblash uchun Perl dasturlash tilida maxsus qobiq yozib amalda qo'llagan. Ko'p o'tmay qobiqni ishlash unumdorligi juda past va sekinligi aniqlanganidan so'ng, dasturlarni yangidan —C++ tilida yozib chiqishga to'g'ri keladi. Keyin, dastlabki dastur kodlari muallif tarafidan barchaga ko'rish uchun

serverga nashr qilingan. Server foydalanuvchilari kodlar bilan qiziqib, uni ishlatish muxlislari ham paydo bo'lgan. Ko'p o'tmay, bu dasturlar alohida loyihaga aylanib, 1995 yilning iyul oyida dasturiy mahsulot JAVA EE (Personal Home Page) nomi bilan birinchi nashri chiqarildi. Imkoniyatlari oddiy va sodda bo'lib: bir necha buyruqlarni tushunadigan kod analizatori (tekshiruvchisi), mehmonlar hisoblagichini, kitobini, chatini yaratish uchun foydali dasturlar to'plamidan iborat bo'lgan.

1996 yil aprel oyida dasturlar jiddiy qayta ishlanganidan so'ng, JAVA/FI (Personal Home Page / Forms Interpreter) nomi bilan mahsulotning ikkinchi nashri paydo bo'ldi. Bu mahsulot html-kod ichiga yozilib, html-formalarni qayta ishlab, hozirgi JAVA dasturlash tilining tayanch imkoniyatlarini ichiga olgan. JAVA/FI kod yozilishi Perl tiliga juda o'xshagan, lekin soddaroq bo'lgan.

1997 yili JAVA/FI 2.0 nashri chiqdi. O'sha paytda bu mahsulot bilan dunyo bo'yicha bir necha ming odam foydalanib, taxminan 50 ming domen bo'lib, Internetning 1% ini tashkil qildi.

1997 yilda Endi Gutmans va Ziv Suraski JAVA/FI kodini boshqatdan yozib chiqishdi, chunki eski kod ular ishlatayotgan elektron tijorat tizimlari uchun yaroqsiz edi. Eski kodning mualliflaridan yordam olish uchun ular birlashishni taklif etib, JAVA EE nomli loyihani JAVA/FI -ni rasmiy vorisi deb e'lon qilishdi. Yangi loyiha uyushgandan keyin JAVA/FI loyihasi ishlab chiqarilishi to'xtatilgan.

JAVA EE ning eng kuchli taraflaridan biri uning kengaytirala olinadigan yadrosi (tizimning boshqaruv qismi) bo'lib, bundan tashqari, ma'lumot jamg'armalar bilan, turli protokollar va interfeyslar bilan birgalikda ishlash keng imkoniyatlari yaratildi. Muvaffaqiyatga erishishga ancha ahamiyatli fakt bu yangi tilni boyligi va ob'ektlarga mo'ljallangan dasturlashni qo'llay olishi. Yangi loyiha bilan birga nafaqat tilni tashqi, ichki tuzulishi o'zgardi, balki o'zini nomi ham. Endi JAVA qisqartmasi —JAVA: Hypertext Preprocessor¹ ma'nosini anglatishi bildirildi.

1998 yilning oxirida JAVA foydalanuvchilarning soni o'n minglardan oshdi. Yuz mingdan oshiq veb-saytlar bu tilni qo'llashini e'lon qilishdi. Taxminan Internetning 10% serverlarida JAVA EE o'rnatilgan edi.

1998 yilning iyun oyda JAVA EE to'qqiz oy ommaviy tekshiruvdan keyin rasman e'lon qilindi. Shu yilning qishida Endi Gutmans va Ziv Suraski JAVA yadrosini qaytadan ishlab chiqarishni boshlashgan. Ularning asosiy vazifasi JAVA tiziminig unumdorligini ko'tarish va kodning modullarini yaxshilash edi.

1999 yilning o'rtalarida birinchi marta taqdim qilingan yangi yadro —Zend Enginell deb nomlangan (—Zendll: mualliflar —Zeevll va —Andill ismlardan tashkil topgan). Uni asosida tuzilgan yangi til JAVA EE 2000 yilning may oyida rasman chiqarilgan. Unumdorlik yaxshilangandan tashqari, JAVA 4.0 muhim yangiliklarga ega bo'lib, sessiyalarni qo'llash, buferli chiqarish, kiritilgan ma'lumotlarni havfsiz qayta ishlash va yana bir necha yangi til tuzuvchilarini paydo bo'lishidan iborat.

JAVA dasturlash tilining afzalliklari va web saytlar yaratishdagi o'rni

JAVA tili asosan quyidagi afzalliklarga ega:

1. an'anaviylik
2. oddiylik
3. samaradorlik
4. xavfsizlik
5. moslashuvchanlik

An'anaviylik

JAVA tarkibidagi til strukturasi C++ va Perl ga o'xshashlik xususiyati uning barcha versiyalarida saqlanib qolgan.

1.3. Java web dasturlash tili, uning ma'lumotlar bazasi va web serverlar bilan bog'liqligi

Masalaning qo'yilishi

Ushbu elektron o'quv qo'llanmani yaratishdan maqsad o'rta-maxsus va oliy ta'lim o'quv muassasalari talabalari hamda shu sohaga qiziquvchilarga JAVA web

dasturlash tili haqida boshlang'ich bilimlar olishga yordamlashish. Bundan tashqari MySQL ma'lumotlar bazasi haqida tushunchalar hosil qilish va uni JAVA dasturlash tili bilan bog'lashni o'rgatishdan iborat.

Yuqoridagi maqsadlarga erishish uchun quyidagi masalalarni yechish lozim:

Internet, uning hozirgi zamon AT muhitidagi o'rni va uning asosiy tushunchalarini o'rganish;

web dasturlash tillarining asosi bo'lgan HTML gipermatnli tili haqida tushunchaga ega bo'lish;

JAVA tilining imkoniyatlarini o'rganib chiqish;

Ma'lumotlar bazasi bilan ishlash va uni boshqarish;

Elektron o'quv qo'llanmadan foydalanish yo'riqnomasini yaratish.

JAVA web dasturlash tili haqida umumiy ma'lumotlar.

Undagi funksiya va ob'yektlar

O'zgaruvchilar

O'zgaruvchilar hamma dasturlash tilining asosidir. Bularga O'zgarmas sonlar, belgilar va boshqalar kiradi.

Misol qilib sonlarni olaylik. Ular butun sonlar, qoldikli sonlar bo'lishi mumkindir va yana bularni orasiga ikkilik, sakizlik, o'n oltilik sanoq sistemasidagi sonlar ham kiradi. Yoki belgilardan &, %, /, \$, # va yana harflar ham kiradi.

Agarda biz qandaydir o'zgaruvchiga nimadir belgilab berish niyatimiz bo'lsa unda biz quyidagicha yozishimiz shartdir:

```
private String bilim="kitob";
```

```
private String rang="qizil";
```

Bulardan tashqari yana ishchi belgilarimiz bor ya'ni:

Bu belgilarni kerakli bo'lgan joylarda qulaygina ishlatishingiz mumkindir.

Bu yerda —| belgisi bilan " belgilari orasida farq bordir.

Misol:

```
List<ClassName> double_list= List<ClassName> "item1\ntem2\ntem3";
```

Ekranga chiqarganingizda single_list tamoman bir biri bilan birga va \n belgisi bilan chiqadi, double_list esa bu belgilersiz bo'sh joy bilan birga chiqadi.

Massivlar

Massiv indeksli o'zgaruvchidir.

Massiv sodda ta'rifi:


```
<type> <var_name>[<konstanta_ifoda>] = <init>;
```

Massiv indekslar qiymati har doim 0 dan boshlanadi.

Massivga hotira ajratish uchun maxsus new operatoridan foydalaniladi.

```
int a[];
```

```
int a[]=new int[6];
```



3-rasm. Massiv joylashuvi

Massiv inisalizatsiya qilinganda elementlar soni ko'rsatilishi shart emas.

Masalan:

```
double d[] = {1, 2, 3, 4, 5};
```

Masalan:

```
xTu = new int[] { 17, 19, 23, 29, 31, 37 };
```

Massiv elementlar sonini hisoblash uchun length dan foydalanish kerak.

Nomlash

Ob'yektlarni, funksiyalarni, o'zgaruvchilarni nomlash uchun siz hamma belgilardan (lotincha) ishlatishingiz mumkin. Faqatgina boshlanishi sondan va yordamchi belgilardan bo'lishi kerak emas. Va ichida yordamchi belgilari bo'lmasligi kerak.

misol:

Sonlarni esa:

\$price=43.22;

\$ogirligi=185;

Ichki o'zgaruvchi

Ichki (lokal) o'zgaruvchi

Ichki (lokal) o'zgaruvchi deb funksiyaning ichida tanitilgan o'zgaruvchiga aytiladi.

misol:

1. final kalit so'zi konstantalarni e'lon qilish uchun
2. final kalit so'zi o'zgaruvchining ohirgi qiymati degan ma'noni beradi va o'zgartirilmaydi.
3. Konstantalar katta harfda yoziladi.

```
public class MainClass {  
    public static void main(String[] arg) {  
final int FEET_PER_YARD = 3;    // Konstanta qiymati  
final double MM_PER_INCH = 25.4;  
        System.out.println(FEET_PER_YARD);  
        System.out.println(MM_PER_INCH);  
    }  
}
```

Shunda ekraningizda \$x ning ikki xil raqami chiqadi. 4 bu umumiy tanitilgan raqami, 0 esa ichkisidir.

Global o'zgaruvchi

Global, ya'ni umumiy o'zgaruvchanlar butun sahifamiz bo'yicha hamma joyda ishlatishingiz mumkindir. Yuqoridagi misolda \$x=4 bu bizning global o'zgaruvchimizdir. Agarda uni biz funksiya ichida ishlatmoqchi bo'lsak unda:

Bir turdan ikkinchi turga o'tish

Agarda siz qandaydir son hoh butun son hoh qoldikli bir turdan ikkinchisiga o'tkazish niyatingiz bo'lsa unda bu dars sizga yordam beradi.

Keling avval qanday turlari borligini yozib so'ngra bir turdan ikkinchisiga o'tkazishni ko'rib chiqamiz.

Keling bir turdan ikkinchi turga o'tkazishni ko'raylik.

```
Int s =12;
```

Double=(*parse.double(s)*); shunda 12 soningiz 12.0'ga aylanadi.

Yoki yana bir boshqa misol

```
$son1=4.0;
```

```
$son2=5;
```

```
$son3=(int)$son1+$son2;
```

Shunda son3 9 soniga teng bo'ladi.

```
$son1=7.8;
```

```
$son2=6;
```

```
$son3=(int)$son1+$son2;
```

Shunda son3=13'ga

